

**QASHQADARYO VILOYATIDA 2024 YIL YANVAR- SENTABR  
OYLARIDAGI ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

**Y.P.Urunbayeva**

*Falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent.*

*ulduzurunbaeva75@gmail.com*

*Tel: +998 90 505-21-05*

**Z.M.Qudratova – talaba.**

*zarnigormahmudovna1@gmail.com*

*Tel: +998 91 945-38-02*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

**Abstrakt:** Maqlada 2024 yil yanvar-sentyabr oylarida Qashqadaryo viloyatidagi asosiy kapitalga investitsiyalar miqdorining viloyat hududlari va iqtisodiy tarmoqlarga nisbatan taqsimoti tahlil qilinadi. Tadqiqotda viloyatning turli tarmoqlari va geografik hududlariga qaratilgan investitsiyalarning ta'siri, ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi, shuningdek, sektorlar bo'yicha investitsiyalarni samarali taqsimlashning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Asosiy kapital, investitsiyalar, Qashqadaryo viloyati, iqtisodiy sektorlar, tarmoqlar, investitsiya tahlili, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya imkoniyatlari, investitsiya samaradorligi, mahalliy iqtisodiyot.

**Аннотация:** В статье анализируется распределение инвестиций в основной капитал по регионам и экономическим секторам Кашкадаргинской области в период с января по сентябрь 2024 года. Исследование рассматривает влияние инвестиций, направленных на различные сектора и географические районы области, их вклад в экономическое развитие, а также важность эффективного распределения инвестиций по секторам.

**Ключевые слова:** Основной капитал, инвестиции, Кашкадаргинская область, экономические сектора, отрасли, инвестиционный анализ, экономическое развитие, инвестиционные возможности, эффективность инвестиций, местная экономика.

**Abstract:** This article analyzes the distribution of investments in fixed capital across the regions and economic sectors of the Kashkadarya region during the period from January to September 2024. The study examines the impact of investments directed at various sectors and geographic areas of the region, their contribution to economic development, as well as the importance of efficient distribution of investments across sectors.

**Keywords:** Fixed capital, investments, Kashkadarya region, economic sectors, industries, investment analysis, economic development, investment opportunities, investment efficiency, local economy.

**Kirish.** Investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiy o'sish va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarni to'g'ri taqsimlash, ularni ishlab chiqarishni oshirishga, ish o'rinalarini yaratishga va aholi turmush darajasini yaxshilashga hissa qo'shadigan sohalarga yo'naltirish juda muhimdir. Janubiy O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan ahamiyatli hududi bo'lgan Qashqadaryo viloyati, o'zining qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohalari bilan turli iqtisodiy strukturalarga ega.

Har qanday davlatda iqtisodiyotining tarmoqlari va sohalariga investitsiyalar kiritish orqali quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga erishiladi:

- ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish miqdor va sifat jihatdan o'smoqda;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqdorining o'sishi davlat byudjetiga tushayotgan soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishi ish haqining ortishiga va aholi farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi;
- jahon talablariga javob beradigan raqobatbardosh ishlab chiqarish orqali mamlakatning eksport salohiyati o'sadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni hududlar va tarmoqlar bo'yicha tahlil qilish, iqtisodiy siyosatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, investitsiyalarni samarali taqsimlashning yo'nalishlarini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada 2024 yil davomida Qashqadaryo viloyatidagi investitsiyalar taqsimoti va uning iqtisodiy rivojlanishdagi ta'siri, shuningdek, hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya oqimlarini tahlil qilishga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi – investitsion oqimlarning samaradorligini baholash va viloyatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun investitsiyalarni yanada samarali taqsimlash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradigan kompleks tahlilni taqdim etishdir.

**Tahlil va natijalar.** Qashqadaryo viloyatidagi iqtisodiy sektorlarga jalb qilingan investitsiyalarning taqsimoti 2024 yilning yanvar-sentyabr oylarida tahlil qilindi. Viloyatning iqtisodiy tizimida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar o'zining hajmi va turli sohalarga yo'naltirilishi bo'yicha farqlanadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar, asosan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va xizmatlar tarmoqlarida yo'naltirilgan.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda asosiy kapitalga jalb qilingan investitsiyalar miqdori 24 399,5 milliard so'mni tashkil etdi. Ushbu mablag'larning

160,6% yoki 3 091 milliard so‘mi, tashqi mablag‘lar hisobidan moliyalashtirildi, qolgan qismi, ya’ni 9,8% yoki 2 394,3 milliard so‘m, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari orqali ta’minlandi. Umumiy investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2023-yilga nisbatan 2,5% foizga kamayib, 14,5% yoki 3 539,1 milliard so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari orqali amalga oshirilgan investitsiyalar 20 860,4 milliard so‘mni yoki jami investitsiyalarning 85,5% tashkil etib, 2023-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,6% o‘sdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, korxona va tashkilotlar tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2 394,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,8 foizini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan esa jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,3 foizi yoki 1 785,0 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi esa 6 341,6 mlrd. so‘mga yetib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,6 foiz punktga oshib, jami investitsiyalarning 226,9 foizini tashkil etdi.

<b>Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>Mlrd so‘m</b>
Respublika budjeti	1 087,7
kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	10 124,5
Suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	9,1
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	214,9
Aholi mablag‘lari	1 785,0
Korxona mablag‘lari	2 394,3
O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	2 448,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	0,1
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	6 341,6

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga ajratilgan investitsiyalar hududlar kesimida quyidagicha taqsimlandi.

Mazkur jadvalda Qashqadaryo viloyatidagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, shuningdek, tumanlar va shaharlar kesimida o‘sish sur’atlari va viloyatdagi ulushi ko‘rsatilgan. Nishon tumani eng katta investitsiya hajmini o‘zlashtirgan hudud bo‘lib, 8 093,0 mlrd. so‘m investitsiya bilan viloyatning 33,2% ni tashkil etadi. Shahrisabz shahrida yuqori o‘sish sur’ati (241,7%) kuzatilgan bo‘lsa, G‘uzor va Muborak tumanlari ham yirik investitsiyalarga ega.

2023-yilning mos davriga nisbatan hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishida eng yuqori o‘sish sur’ati Nishon tumanida kuzatildi. Bu tumaning investitsiya hajmining o‘sishi 2,4 m% ga oshib, asosiy kapitalga investitsiyalarni o‘zlashtirishda 243,7% ga o‘sish qayd etildi. Ushbu o‘sish, Nishon tumanida quvvati 900 MVt bo‘lgan gazuskunalarini qurish bo‘yicha amalga oshirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular tuman iqtisodiyoti va sanoati rivojiga katta hissa qo‘shmoqda.

Shuningdek, Shahrisabz shahrida ham yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sish 241,7% ni tashkil etdi. Ushbu o‘sish, shaharda amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari va sanoat tarmoqlariga investitsiyalarning qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi.

### **2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar**

<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>Investitsiyalar hajmi, mldr. so‘m</b>	<b>O‘sish sur’ati, % da</b>	<b>Qashqadaryo viloyatidagi ulushi, % da</b>
Qashqadaryo viloyati	24 399,6	160,6	100,0
Qarshi sh.	2 912,6	111,0	11,9
Shahrisabz sh.	608,0	241,7	2,5
G‘uzor	2 781,6	146,8	11,4
Dehqonobod	198,6	83,7	0,8
Qamashi	419,0	114,3	1,7
Qarshi	700,4	126,0	2,9
Koson	432,8	83,1	1,8
Kitob	494,3	91,1	2,0
Mirishkor	379,6	131,3	1,6
Muborak	4 346,9	183,8	17,8
Nishon	8 093,0	243,7	33,2
Kasbi	642,2	121,2	2,6
Ko‘kdala	129,8	50,3	0,5
Chiroqchi	688,4	135,3	2,8
Shahrisabz	843,9	232,1	3,5
Yakkabog‘	738,4	133,4	3,0

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi quyidagi ko‘rinishda bo‘ldi:

1. Mashina, uskuna va inventarlarga 12 972,5 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, jami investitsiyalarning 53,2% tashkil etdi.
2. Qurilish-montaj ishlari bo‘yicha esa 9 441,2 mlrd. so‘m investitsiya mablag‘lari jalb qilindi, bu jami investitsiyalarning 38,7% teng.
3. Boshqa xarajatlarga 1 985,8 mlrd. so‘m mablag‘lar yo‘naltirildi, bu esa jami investitsiyalarning 8,1% tashkil etdi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumanida qayd etildi, bu yerda ulush 9,5 %ni tashkil etib, investitsiyalar hajmi 2 315,4 mlrd. so‘mga yetdi. Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng past ko‘rsatkich esa Mirishkor tumanida kuzatildi, bunda ulush faqat 0,3 %ni tashkil etib, 75,9 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. Qarshi tumanida esa mashina, uskuna va inventarlarga xarajatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich qayd etildi, bu yerda ulush 20,9 %ni tashkil etib, 5 121,3 mlrd. so‘nni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, tog‘-kon sanoatida jami 6 781,7 mlrd. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 27,8 %i o‘zlashtirilgan. Ushbu investitsiyalar tarkibidan 19,8 %i, ya’ni 1 340,4 mlrd. so‘m xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir. Ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish sohasi yuzasidan, viloyat bo‘yicha jami 3 042 ta xonodon, Qarshi tumanida 330, Koson tumanida 1 748, Ko‘kdala tumanida 720, Shahrisabz tumanida 1 730, Qamashi tumanida 1 010, Chiroqchi tumanida 3 256, Kitob tumanida 940 va Yakkabog‘ tumanida 600 o‘quvchi o‘ringa mo‘ljallangan maktablar rekonstruksiya hisobidan ishga tushirildi. Maktablar qurilishida jami 245,9 mlrd. so‘m investitsiyalar Respublika budjeti hisobidan o‘zlashtirildi.

Shuningdek, viloyatda Suv tarmog‘i qurilishida va gaz tarmog‘i qurilishida investitsiyalar o‘zlashtirilmadi. Biroq, viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minalashni yaxshilash maqsadida, kelgusi yilda suv ta’mintoni yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilishi rejalshtirilgan.

**Xulosa.** 2024 yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori sezilarli o‘sishga erishdi. Viloyatning turli tarmoqlariga va hududlariga qaratilgan investitsiyalar, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minalashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni ko‘zda tutmoqda. Shuningdek, investitsiyalarni samarali taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv va gaz tarmog‘i qurilishiga oid investitsiyalarning kamligi esa kelgusi yillarda alohida e’tibor talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz)
2. Makroiqtisodiyot-2.O'quv qo'llanma. Toshkent-2019
3. Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – Toshkent-2021.
4. Agapova T.A., Seregina S.F. Macroeconomics: Textbook.-10th ed., rev. Moscow: MFPU Synergy Publishing House, 2013. p. 214.
5. Urunbaeva, Y. P., & Qudratova, Z. M. (2025). THE GLOBAL IMPLEMENTATION OF THE GREEN ECONOMY AND ITS IMPACT ON SUSTAINABILITY. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(2), 312-321.
6. Qudratova, Z. M. (2025). THE INVERSE RELATIONSHIP BETWEEN THE ESSENCE OF INFLATION AND UNEMPLOYMENT AND ANTI-INFLATIONARY POLICIES. *Educator Insights: Journal of Teaching Theory and Practice*, 1(2), 369-376.
7. Урунбаева, Ю. (2021). Роль малого бизнеса в повышении уровня жизни. *in Library*, 21(1), 19-22.